

TEMIR YO'L TRANSPORTIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHINING SUBYEKTLARI

Alixonov Bexzod Nizamidinovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqola temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy tartibga solinishining subyektlari va ularning vazifalari, vakolatlari hamda funksiyalari tahliliga bag'ishlangan. Maqolada davlat organlari, vazirliklar, qonunni muhofaza qilish idoralari va maxsus tashkilotlar hamda ularning hamkorlik mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tahlil asosida temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashda institutsional jihatdan samarali tizimni shakllantirishning muhim ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti, jamoat xavfsizligi, ma'muriy-huquqiy tartib, davlat organlari, vazifalar va vakolatlar, institutsional subyektlar, huquqiy tartibga solish, hamkorlik.

СУБЪЕКТЫ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ

Алихонов Бехзод Низамидинович

Независимый исследователь, Ташкентский
государственный юридический университет

Аннотация

Статья посвящена анализу субъектов административно-правового регулирования обеспечения общественной безопасности на железнодорожном транспорте, их задач, полномочий и функций. В статье рассматриваются государственные органы, министерства, правоохранительные органы и специализированные организации, а также механизмы их взаимодействия. На основе анализа подчеркивается важность формирования институционально эффективной системы обеспечения общественной безопасности на железнодорожном транспорте.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, общественная безопасность, административно-правовой порядок, государственные органы, задачи и полномочия, институциональные субъекты, правовое регулирование, взаимодействие.

SUBJECTS OF ADMINISTRATIVE AND LEGAL REGULATION OF ENSURING PUBLIC SAFETY IN RAILWAY TRANSPORT

Alikhonov Bekhzod Nizamidinovich

Independent Researcher, Tashkent State University of Law

Abstract

The article is devoted to the analysis of the subjects of administrative and legal regulation of ensuring public safety in railway transport, their duties, powers, and functions. The article examines government bodies, ministries, law enforcement agencies, and specialized organizations, as well as their

cooperation mechanisms. Based on the analysis, the importance of forming an institutionally effective system for ensuring public safety in railway transport is emphasized.

Keywords: Railway transport, public safety, administrative and legal regulation, government bodies, duties and powers, institutional subjects, legal regulation, cooperation.

Ma'muriy huquq subyekti tushunchasi ma'muriy-huquqiy tartibga solish mexanizmini anglashga yordam beradi. Professor E.D. Qutibaeva ma'muriy huquq subyektivligini ma'muriy-huquqiy tartibga solishning mohiyatiga ko'ra aniqlashni taklif etadi, bu esa turli soha va jamoat hayoti yo'nalishlarida ommaviy manfaat va irodani (ommaviy hokimiyat o'lchovini) ro'yobga chiqarish darajasini belgilashdan iboratdir. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlariga temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida shakllanadigan barcha ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini kiritish mumkin. Ushbu subyektlarning ayrimlari temir yo'l transporti sohasidagi munosabatlar tizimiga hokimiyat ta'sirini ko'rsatadi, o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi.

Ko'rsatilgan subyektlarga olimlar quyidagilarni kiritadilar: a) temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida normativ-huquqiy tartibga solishni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan subyektlar; b) jamoat xavfsizligini ta'minlash funksiyalarini bajaruvchi va ushbu sohada belgilangan ko'rsatmalarni ijro etuvchi subyektlar; d) jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida nazorat va kuzatuv funksiyalarini amalga oshiruvchi subyektlar. Mazkur tasnifdan ko'rinib turibdiki, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining ko'p subyekтли tuzilmasi ularning turfa xilligi va ko'p funktsionalligi, shuningdek, xavfsizlikni tashkil etish va ular o'rtasida o'zaro hamkorlikni amalga oshirish faoliyatining ko'p qirrali va murakkabligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, olimlar temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ommaviy boshqaruv subyektlarini davlat hokimiyati organlari darajalariga (umumdavlat, mintaqaviy va munitsipal), ma'muriy-huquqiy maqomiga, davlat boshqaruvi sohasi yoki tarmog'iga (xavfsizlik, axborot texnologiyalari, ta'lim sohaslarida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi ijro etuvchi hokimiyat organlari, transport tarmog'idagi organlar), transport xavfsizligini ta'minlash bosqichlari kabi mezonlarga ko'ra tasniflaydilar.

O.V.Gimmelreyx temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash subyektlarining ushbu ijtimoiy munosabatlar sohasida yagona talablarni belgilovchi subyektlar (qoidalar, standartlashtirish va normallashtirish va x.k.); belgilangan talablarni bajaruvchi subyektlar; temir yo'l transportida belgilangan talablarning bajarilishini nazorat va kuzatuv orqali ta'minlovchi subyektlar kabi tasnifini beradi.

Birinchi guruhga u temir yo'l transportini boshqarish, uning xavfsiz faoliyat yuritishi va ekspluatatsiyasi sohasida yagona siyosatni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarini kiritadi: Prezident, Parlament, Vazirlar Mahkamasi, Transport vazirligi. Ikkinchi guruhga temir yo'l transportida belgilangan talablar va qoidalarga (harakat xavfsizligi, yo'lovchilarni tashish qoidalari, yuklar va xavfli yuklarni tashish qoidalari va x.k.) rioya etishga majbur bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar (transport ishlarini va xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar) kiritiladi. Uchinchi guruh subyektlariga transport sohasida xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha belgilangan talablarning bajarilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar kiritilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu tasnif umumiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, ushbu tasnifni aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Qonunchilikka muvofiq, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini **ta'minlovchi** va uni ta'minlashda **ishtirok etuvchi** subyektlardan iboratdir. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlarga Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Transport vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Raqamli texnologiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari kiradi. Boshqa davlat organlari va tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar esa jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlar hisoblanadi.

Bunda ko'rsatilgan subyektlar yagona ommaviy manfaat temir yo'l transportini g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilish manfaatida birlashtirilgan. Ular o'z faoliyatini xavfsizlik sohasidagi tartiblar, qoidalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradilar. Shuningdek, ular o'zaro xavfsizlikni ta'minlash vazifalarining funksional mazmuni, boshqaruv funksiyalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish ketma-ketligi (tahdidlarni aniqlash, toifalarga ajratish, obyektning zaifligini baholash, rejalashtirish, nazorat, kuzatuv va h.k.) bilan bog'langan. Bundan tashqari, ular xavfsizlikni ta'minlashning barcha bosqichlarida mavjud axborot aloqalari asosida o'zaro hamkorlikni amalga oshiradilar.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ma'muriy-huquqiy **ta'minlash** subyektlari orasida ushbu sohada **huquqiy tartibga solish** subyektlarini ham ajratish mumkin, ya'ni **normativ-huquqiy tartibga solishni** amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan subyektlar hamda **individual-huquqiy tartibga solishni** amalga oshiruvchi subyektlar.

O'zbekistonda temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha huquqiy tartibga solish bilan shug'ullanuvchi subyektlar doirasi anchayin keng. Ularni tasniflar ekanimiz, bu yerda ikki guruhni ajratish mumkin, deb hisoblaymiz: umumiy vakolatli organlar (davlat rahbari, parlament, hukumat, hokimlar va boshqalar) va maxsus vakolatli organlar (Transport vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, prokuratura, Milliy gvardiya va boshqalar). Keling, ularning vazifalari va funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Davlat rahbari temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Bevosita ushbu masalalar bilan uning huzurida faoliyat yurituvchi maxsus ishchi organ shug'ullanadi. Bu - mamlakat Prezidentining huzuridagi Xavfsizlik kengashi bo'lib, u davlatning ichki va tashqi siyosati doirasida xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat organi hisoblanadi. Uning huquqiy maqomi shundan iboratki, kengash mamlakat Prezidenti tomonidan boshqariladi va shakllantiriladi. Uning yordamchi, ta'minlovchi, maslahat-maslahatchi tusdagi maqomi qonun darajasida - mamlakat Konstitutsiyasining yangi tahririda (109-modda) mustahkamlangan. Uning asosiy funksiyasi - davlat rahbarining konstitutsiyaviy tuzumni muhofaza qilish, huquq-tartibotni va mamlakatda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

Xavfsizlik kengashi xavfsizlik sohasida, shu jumladan huquqiy sohada davlat siyosatini shakllantiradi, davlat faoliyatining ushbu yo'nalishdagi asosiy yo'nalishlarini belgilashda ishtirok etadi, mamlakat xavfsizligini, shu jumladan transport sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash masalalarida davlat rahbariga qarorlar qabul qilishda ko'maklashadi. Mamlakat Prezidentining huzuridagi maslahat organi sifatida u ushbu sohada davlat faoliyatining tahlilini, monitoringini, bahosini va rejalashtirilishini amalga oshiradi. Shu asosda davlat rahbari tegishli huquqiy qarorlarni qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konstitutsiyaning 93-moddasiga muvofiq, ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, davlatning strategik dasturlari va qonunlarini qabul qiladi, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek jamoat xavfsizligi sohasidagi faoliyat bilan bog'liq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Parlament tegishli qonunlarni, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi [4], "Transport to'g'risida"gi [5] va transport hamda transport xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlarini qabul qiladi.

Parlament palatalari faoliyatida nazorat funksiyasi muhim o'rin egallaydi. Xususan, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi faqatgina 2024-yilda 5 ta eshituvni, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, jumladan temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatini tekshirish, monitoring qilish, tahlil etish va baholash bilan bog'liq boshqa nazorat tadbirlarini o'tkazgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ushbu yo'nalishda davlat dasturlari, "yo'l xaritalari" va rejalarining bajarilishini boshqaradi, jamoat xavfsizligini ta'minlash kuchlari, vositalari va organlarini moddiy hamda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralarni ko'radi. U jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha choralarni amalga oshirishga ko'maklashadi, shuningdek mazkur vazifalarni hal etish faoliyatini har tomonlama ta'minlash masalalarini hal qiladi.

Hukumat transport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlaydi, faoliyatni muvofiqlashtiradi, transport tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etadi, transport infratuzilmasini shakllantirish va uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shuningdek, transport sohasida litsenziyalash, sertifikatlashtirish, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini belgilaydi, transport infratuzilmasi obyektlari va transport vositalarining toifalari sonini hamda ularni toifalarga ajratish mezonlarini belgilab beradi.

Mazkur masalalar yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarni tartibga soluvchi hukumat qarorlarini qabul qilish yo'li bilan hal etiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik milliy ma'lumotlar bazasi (lex.uz) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 10-noyabr holatiga, temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlashga oid O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 46 ta qarori qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati milliy xavfsizlikni ta'minlash, davlat chegarasini qo'riqlash, mamlakatni tashqi tahdidlardan himoya qilish manfaatlarida razvedka faoliyatini amalga oshiradi. Uning vazifalariga, shuningdek, davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish hamda davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish kiradi. Shubhasiz, uning faoliyatida mamlakat transport xavfsizligini, shu jumladan temir yo'l transporti kabi strategik sohada xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhim o'rin egallaydi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish sohasida ayrim huquqni muhofaza qilish funksiyalari bilan vakolatlantirilgan. Bundan tashqari, ijro etuvchi hokimiyatning qator boshqa organlari ham o'z vakolatlari doirasida milliy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan shug'ullanadi.

Dissertatsiya hajmiga va tadqiqot predmetiga qo'yilgan talablarni inobatga olgan holda, biz yuqorida qayd etilgan subyektlarning umumiy tavsifi bilan cheklanamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, ularning har biri o'z vakolatlari doirasida ma'lum darajada temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni amalga oshiradi hamda tegishli funksiyalarni bajaradi.

Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan tizimda yetakchi o'rinni Ichki ishlar vazirligi egallaydi. U ushbu sohada huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiradi hamda temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlaydi. Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi; jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha choralarni ko'radi; jamoat joylarida, shu jumladan transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etayotgan kuch va vositalarga tashkiliy-metodik ko'mak hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi. Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishni ta'minlaydi, huquqbuzarlikka moyil shaxslarni aniqlaydi; jamoat joylarida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarni kompleks va tizimli tahlil qiladi, ularning sodir etilishiga ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar, tavsiyalar va takliflarni kiritadi. Ichki ishlar vazirligi, shuningdek, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar bo'yicha umumiy boshqaruv tizimini ta'minlaydi; jamoat xavfsizligini ta'minlash holati to'g'risida keng jamoatchilikni doimiy ravishda xabardor qiladi, ushbu sohada jamoatchilik fikrini o'rganadi; jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot hamda tashkiliy-metodik ishlarni olib boradi [12].

Temir yo'l transportida yuklar va obyektlarni qo'riqlashga doir normasida belgilanganidek, temir yo'l transportining eng muhim obyektlari va maxsus yuklarni qo'riqlash va kuzatib borish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining bo'linmalari va davlat boshqaruv organlarining boshqa vakolatli bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ichki ishlar vazirligi tizimiga Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti kiradi. Uning tarkibiga Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasi hamda transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmalari (bo'limlari) kiradi.

Qonunchilikka muvofiq, mazkur departament zimmasiga temir yo'l obyektlari hududlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish; transport obyektlari hududlaridagi jinoyatchilik holatini tizimli tahlil qilish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha manzilli choralar ko'rish; temir yo'l transportida tashilayotgan yo'lovchilar harakati xavfsizligini, tovar-moddiy boyliklarning butligini va saqlanishini samarali ta'minlash; transport obyektlarida terrorchilik tahdidlarini, giyohvandlik vositalarining, ularning o'xshash moddalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining, o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi, radioaktiv, zaharli, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharlovchi moddalarning noqonuniy aylanmasi faktlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishni tashkil etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda transport obyektlari va ularga tutash hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha markazlashtirilgan muvofiqlashtirilgan boshqaruvni amalga oshirish vazifalari [2].

Temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash subyektlariga, shuningdek, ushbu sohada xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa organlarni ham kiritish lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida" gi Qonunining 10-moddasi qoidalariga muvofiq, prokuratura organlari tizimida O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi (viloyat prokuraturalari bilan tenglashtirilgan) hamda tuman prokuraturalari bilan tenglashtirilgan hududiy transport prokuraturalari faoliyat yuritadi [3]. Transport prokurorlari qonunlarga, Bosh prokurorning buyruqlariga asoslanib va ularni bajarish maqsadida o'zlariga bo'ysunuvchi xodimlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar, ko'rsatmalar va farmoyishlar chiqaradilar.

Transport prokuraturalari nazoratining predmeti - vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, vazirlik va idoralar korxonolari, muassasalari va tashkilotlari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning bajarilishini, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligini ta'minlashdan iboratdir.

Transport vazirligi transport sohasidagi davlat boshqaruvining maxsus vakolatli organi hisoblanib, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshiradi, transport sohasiga oid davlat va boshqa dasturlarni, kontsepsiyalarni va strategiyalarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qiladi, shuningdek, transportda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini tashkil etadi [5].

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan belgilangan vakolatlari doirasida temir yo'l obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tegishli choralarni amalga oshirish belgilangan [4]. 2023-yilda ushbu inspeksiya negizida yagona nazorat organi - Transport vazirligi huzuridagi Transport inspeksiyasi tashkil etildi. Uning funksiyalari va vakolatlariga quyidagilar kiradi: o'z vakolatlari doirasida temir yo'l tashuvlari xavfsizligini ta'minlash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish; yuk va yo'lovchilar tashishda haydovchilar hamda lokomotiv brigadalari xodimlarining mehnat va dam olish tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash; temir yo'l harakatlanuvchi tarkibi va infratuzilma obyektlarining yagona reyestrini yuritish hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish va boshqa shu kabi vazifalarni bajarish [2].

Mazkur inspeksiya temir yo'l transporti subyektlari tomonidan temir yo'l transporti sohasida texnik jihatdan tartibga solish, harakat xavfsizligini ta'minlash, yuk va yo'lovchilarni umumiy foydalanishdagi temir yo'llarda, metropoliten va temir yo'l kirish yo'llarida tashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar hamda me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Respublika miqyosida maxsus tashkil etilgan komissiya - yuqori tezlikdagi temir yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo komissiya faoliyat yuritadi. U ushbu turdagi temir yo'l transportida xavfsizlik holatini o'rganadi hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarni ko'radi. Xususan, mazkur komissiya tomonidan "Toshkent-Samarqand-Qarshi" yo'nalishi bo'yicha yuqori tezlikdagi temir yo'l liniyasida xavfsizlik talablariga rioya etilishi holati o'rganilgan va tegishli choralar ishlab chiqilgan.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning yana bir ixtisoslashtirilgan subyekti — "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasining harbiylashtirilgan qo'riqlash xizmati hisoblanadi. U yuk tashish jarayonida va temir yo'l stansiyalarida majburiy kuzatuv va qo'riqlash talab etiladigan yuklar ro'yxatiga kiritilgan yuklarni qo'riqlash va hamrohlik qilishni ta'minlaydi; yong'inga qarshi profilaktika tadbirlarini o'tkazadi va belgilangan yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni

amalga oshiradi; shuningdek, yuk poyezdlarida noqonuniy tarzda yurish hamda temir yo'l yo'laklaridan belgilab qo'yilmagan joylarda o'tish holatlarini oldini oladi va ularni bartaraf etadi.

Mazkur tuzilmaning vazifalariga fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini tajovuzlardan himoya qilish, obyektlarni qo'riqlash va ularni hujumlardan himoya qilish, qo'riqlanayotgan obyektlarni boshqarish va obyektning ichki tartibini ta'minlash, qo'riqlanayotgan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish, qo'riqlanayotgan obyektlardagi mulkni qo'riqlash va nazorat qilish, tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish, zamonaviy muhandislik-texnik vositalar va himoya usullarini joriy etish hamda ulardan foydalanish, qo'riqlash bo'linmalari ishchi va xizmatchilarining jangovar va xizmat tayyorgarligi yuqori darajasini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash, obyektlar va mulkni diversion-terrorchilik harakatlaridan, yondirish, o'g'irlik va boshqa jinoyatkorona tajovuzlardan ishonchli himoya qilish masalalari bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar, boshqa davlat organlari va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikni ta'minlash kabilar kiradi.

Shunday qilib, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi - bu shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, harbiy va boshqa xususiyatdagi choralar majmuasini qonunchilikka muvofiq amalga oshiruvchi institutlar, vositalar va usullar yig'indisidan iboratdir.

Ko'rib turganimizdek, bu jiddiy funksiyalar va vakolatlarga ega bo'lgan ancha yirik tizimdir. Mazkur tizimning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: 1) jamoat xavfsizligiga tahdidlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, monitoringini yuritish va baholash; 2) tegishli subyektlar tomonidan bashoratlash, rejalashtirish, qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish; 3) jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalar va funksiyalarni bajarishni tashkil etish; 4) xavf va tahdidlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2024-yil 29-mart kuni huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari ishtirokida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari yuzasidan yig'ilishida IIV va Milliy gvardiya rahbariyatining fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash ishlarining tashkil etilishi tahlil etildi. Jamoat xavfsizligiga yangi tahdid va xatarlar tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda huquqni muhofaza qilish idoralari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi va jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini so'zsiz ta'minlash muhimligi qayd etildi.

Ko'rsatilgan subyektlar doirasi, ularning funksiyalari va vakolatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini bevosita ta'minlaydigan hamda uni ta'minlashga ko'maklashadigan aniq davlat organini qonunchilikda mustahkamlash zarur. Shuningdek, ularning vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini, o'zaro hamkorlik tartibi va shakllarini imkon qadar aniq belgilash (aniqlashtirish) lozim.

Shunday qilib, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi institutsional jihatdan jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va boshqa xususiyatdagi choralarni amalga oshiruvchi organlar, kuchlar va vositalardan iboratdir. Ular orasida temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan subyektlar - davlat rahbari, parlament, hukumat, shuningdek, ushbu sohada tegishli vakolatlarga ega vazirlik va idoralar - alohida o'rin egallaydi. Eng muhim vakolatlardan biri - temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar hamda individual huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Prezident qarorlari va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son qarori «O'zbekiston – 2030 strategiyasi» (2023 yil 11 sentyabr). – Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi “Temir yo'l transporti to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi “Transport to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. Qutibaeva E.D. Ma'muriy huquq nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Yuridik nashriyoti, 2019.
8. Gimmelreyx O.V. Transport va xavfsizlik: nazorat va boshqaruv. – Moskva: Nauka, 2018.
9. Favqulodda vaziyatlar vazirligi hujjatlari: Temir yo'l transportida favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik. – Toshkent, 2022.
10. Ichki ishlar vazirligi “Transportda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tartiblar”. – Toshkent, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi: Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2021.
12. UNESCO. “Guidelines on Transport Safety and Public Security”. – Paris, 2020.
13. OECD. “Transport Safety and Security Policies”. – Paris, 2019.
14. CEFR (Common European Framework of Reference for Languages). – Strasbourg, 2020.